

SUG‘ORILADIGAN TUPROQLAR UNUMDORLIGINI OSHIRISH MASALALARI VA MUAMMOLARI

Abduxakimova Xusnidaxon Abdullayevna
b.f.f.d.

Mirzakarimova Irodaxon Xusanboy qizi
magistrant
Farg‘ona davlat universiteti

ANNOTATSIYA

Maqolada sug‘oriladigan tuproqlarning unumdorligini saqlash, oshirish va muhofaza qilish masalalari keltirilgan bo‘lib, tuproq va uning unumdorligi bir-biridan ajralmas xususiyatga ega ekanligi yoritilgan. Unumdorlik tuproqning murakkab va ko‘p qirrali xususiyati bo‘lib, u ozuqa moddalari, shuningdek, bir-birini taqozo etadigan fizikaviy, kimyoviy va biologik jarayonlarga bog‘liq.

Kalit so‘zlar: unumdorlik, tuproq, gumus, organik modda, elementlar, qishloq xo‘jaligi ekinlari.

Dolzarbligi

Bugungi kunda respublikamizda qishloq va suv xo‘jaligining barcha sohalarida tub islohotlarni amalga oshirish, investitsiya dasturlarini takomillashtirishda yer va suv resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish uchun ilmiy asoslangan fan yutuqlarini va ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalarini tatbiq etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Buning uchun qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining mintaqaviy va regional tizimlarini ilmiy jihatdan asoslash, ishlab chiqish va tuproq iqlim sharoitlariga mos holda qo‘llash lozim. Albatta, bunday vazifani amalga oshirishda soha olimlari, qishloq xo‘jaligini yurituvchi mutaxassislar mas’uldirlar. Shuning uchun ham mutaxassis olimlar amaliyotni jadallashtirish va rivojlantirishning nazariy va amaliy jarayonlari mexanizmini ishlab chiqishlari hamda amaliy tavsiya va xulosalar berishlari kerak.

Qishloq xo‘jaligi faoliyati va amaliyotida yerdan foydalanishning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, yerning tuproq tarkibi va holati hosildorlik hamda yetishtirilayotgan ekinlardan olinayotgan mahsulotlar sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish va tuproq unumdorligini oshirib borishning yechimi, bu ijtimoiy taraqqiyot va biosfera rivojlanishining tabiiy-ekologik qonuniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

TADQIQOT OBYEKTI

sifatida Janubiy Farg'onaning konus yoyilmalarida shakllangan, dehqonchilik sharoitida madaniylashgan sug'oriladigan tuproqlari tanlab olingan.

TADQIQOT USLUBLARI

Tadqiqotlar uslubiyoti asosini o'rganilgan xududlar tuproq xaritalari ma'lumotlarini tahlil qilish, qiyosiy geografik, tuproq-kartografik, laboratoriya kameral-analitik tadqiqotlar natijalarini umumiylashtirish hamda sug'oriladigan yerlarni sifatini baholash uslublari tashkil etadi. Tayyorgarlik, dala, kameral ishlar Tuproqshunoslik va agrokimyo tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va umumqabul qilingan uslubiyotlar asosida olib borilgan.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMASI

Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan yerlarning asosiy qismini unumdorlik darajasi, ularning ekologik-meliorativ holati talab darajasida emas, lekin ilm-fanning yutuqlariga asoslangan tavsiyalarga, an'anaviy tajribalarga tayanib ishlayotgan dehqon, fermer xo'jaliklari yerlaridagi tuproqlarning unumdorligi yuqori darajada ekanligi ham kuzatilmoxda. Har qanday tip va tipchadagi tuproqlardan foydalanilganda, ularning unumdorligi amaliyotda namoyon bo'ladi va shu iqlim-mintaqa uchun ishlab chiqilgan mahalliy agromeliorativ, agrotexnologik chora-tadbirlar qo'llaniladi. Bunday tadbirlarni qo'llash yordamida, ko'pincha qisman maqsadga erishish bilan tuproqning unumdorligi har xil darajada oshishiga erishiladi. Ammo tuproqning unumdorligini tubdan oshirish uchun asosiy maqsad bo'lgan tuproqning nisbatan turg'un va samarali unumdorligini oshirishda tuproqda organik moddaning to'planishini ko'paytirish zarur. Buning uchun, hozirgi vaqtda dehqonchilik amaliyotida ustun turadigan almashlab ekish tizimini tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqib joriy etish kerak.

Ko'pgina olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, tuproq gumusi uning asosoiy xossalariiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sug'oriladigan tuproqlar unumdorligini belgilash, ularning gumus, fosfor va kaliyli holatiga bog'liqdir. Kuzatishlarga asoslanib, bo'z tuproqlar mintaqasi sug'oriladigan tuproqlarida, ayniqsa ularning yuqori qatlamlarida, gumusning umumiy miqdori, shunga mos ravishda yalpi azotning kamayishi aniqlangan.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, respublikadagi qadimdan sug'oriladigan hamda yangidan sug'oriladigan tuproqlarda yuqori agrotexnika qo'llanilganida madaniylashgan tuproqlarning haydalma qatlamida gumus miqdori 1,18-1,32%, ayrim hollarda 1,63-1,78 % va undan yuqori bo'lgani aniqlangan. Tuproqlarga ko'proq organik o'g'itlar qo'llash orqali ularning unumdorligini saqlash va oshirish imkoniyatlarini beradi.

Sug‘oriladigan tuproqlarning unumdorligini pasayib borish sabablaridan yana biri tuproqdan olingan oziqa elementlari va boshqa moddalarni o‘z vaqtida qaytarib berish qonunini buzilganligidir. Sug‘oriladigan tuproqlarda har yili ekiladigan g‘o‘za, donli o‘simliklar, meva, sabzavot va poliz ekinlari katta miqdorda o‘zlari bilan ma’lum miqdorda oziqa elementlarini, ya’ni hosili, vegetativ qismlari bilan butunlay chiqib ketadi.

Dehqonchilik amaliyotida foydalanilayotgan tuproqlarning unumdorligini saqlab qolish va oshirib borish ulardan to‘g‘ri va samarali foydalanishga bevosita bog‘liq. Yer resurslarining muhim qismi bo‘lgan tuproq qatlamidan oqilona foydalanish uning unumdorligini saqlab qoladi va oshiradi. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, ayrim yerlarda, tuproqdan noto‘g‘ri foydalanish natijasida, uning unumdorligi pasayib ketish holatlari ham uchrab turadi. Tuproq unumdorligini saqlash va muhofazasidagi muhim masalalardan biri - tuproqni organik moddaga boyitish hamda ekinlarni to‘g‘ri joylashtirishdir.

Ilmiy izlanishlar tahlili natijalariga ko‘ra, har qanday tip va tipchadagi tuproqlarda ham dehqonchilik tizimini to‘g‘ri tashkillash orqali undagi gumus miqdorini oshirish imkoniyatlari mavjud.

Oxirgi vaqtida olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, tuproqlar degumifikatsiyasi tuproq unumdorligini pasayishiga olib keladi. Tuproqlarda organik moddaning kamayishi ularda ko‘plab ijobjiy agrokimyoviy xossalarni yo‘qolishi bilan birga kechadi. Tuproqlarda gumusning kamayishi beda bilan almashlab ekishning deyarli yo‘qligi, sideratlarning ekilmasligi, organik o‘g‘itlar qo‘llanilmasligi misol bo‘ladi.

Tuproqlarning gumuslilik holatini yaxshilash maqsadida hamma yerlarga organik o‘g‘it (go‘ng) qo‘llash zarur. Bunday o‘g‘itlarga qo‘sishimcha manba sifatida somon, g‘o‘zapoya, o‘simliklarning ang‘izi, turli xil chorva-mollari xo‘jaliklari chiqindilarini solib va haydab yuvorish zarur, chunki bu moddalarda hamma oziq moddalar o‘simliklar uchun o‘zlashtiriladigan holda bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida bir necha yilda kam mahsuldor yerlarning unumdorlik darajasini ko‘tarishga erishiladi, ushbu sharoitlarga mos ekinlardan yuqori hosil va daromad olinib, respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishga hamda mamlakatimiz oziq-ovqat havfsizligini ta’minlashga salmoqli hissa qo‘shiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Abduxakimova, X. A., & Isagaliyev, M. T. (2020). Izmeneniye soderjaniya myshyaka i tyajelykh metallov v serozemax Yuga Fergany. *Nauchnoye obozreniye. Biologicheskiye nauki*, (4), 16-21.
2. Абдухакимова Х. А. Шохимардонсой конус ёйилмаси сугориладиган тупрекларининг геокимёси //Б. ф. ф. д. дисс. автореф. Фаргона. – 2021. – Т. 42.
3. Isag‘aliyev M., Abduxakimova X., Mirzajonov I. Sug‘oriladigan o‘tloqi saz tuproqlarining agrokimyoviy xossalari //Fanning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani materiallari.–F.: FDU. – 2018. – С. 84-86.
4. Murodjon, I., Gulyam, Y., & Khusnida, A. (2018). Geochemistry of biomicroelements in irrigated serozems in the south of Fergana. *European science review*, 2(11-12), 25-27.
5. Юлдашев, F., Сотиболдиева, Г. Т., & Абдухакимова, X. X. (2020). Biogeochemical properties of calcium and strontium in gray soils. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(5), 61-67.
6. Isakov, V., & Yusupova, M. (2021, July). CHANGES IN THE PROPERTIES OF SANDY SOILS. In Конференции.
7. Юсупова, М., Абдухакимова, X., & Жалолов, Э. (2021). Барханные и слабо заросшие пески Центральной Ферганы. Наука сегодня: вызовы и решения материалы меж, 16.
8. Isagalieva, M., Abakumov, E., Turdaliev, A., Obidov, M., Khaydarov, M., & Abdughakimova, K. & Musaev, I.(2022). *Capparis spinosa L. Cenopopulation and Biogeochemistry in South Uzbekistan. Plants*, 11(13), 1628.